

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 150 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmuratovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуювна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуювна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	



O'ZBEKISTONDA IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL ASOSLARI



Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich

O'zMU, "Makroiqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi,
i.f.f.d. (PhD)

ORCID: 0000-0002-2870-307X

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari tizimli tahlil qilingan. Milliy innovatsion tizim subyektlari, obyektlari va mexanizmlari, shuningdek, ularning o'zaro hamkorligi samaradorligini belgilovchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va fan-texnologiya institutlarining roli yoritilgan. Institutsional islohotlar bosqichlari, ularning mazmuni, institutsional bo'shliqlar va mavjud muammolar tahlil qilingan. Innovatsion rivojlanishni jadallashtirishning institutsional asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion rivojlanish, institutsional asoslar, milliy innovatsion tizim, siyosiy institutlar, iqtisodiy institutlar, fan-texnologiya institutlari, institutsional islohotlar, vechur moliyalashtirish, intellektual mulk, startaplar.

Abstract: The article provides a systematic analysis of the institutional foundations for the innovative development of Uzbekistan's economy. It highlights the subjects, objects, and mechanisms of the national innovation system, as well as the role of political, economic, social, and science-technology institutions in determining the effectiveness of their interaction. The stages of institutional reforms, their content, institutional gaps, and existing challenges are examined. Recommendations are given for improving the institutional foundations to accelerate innovative development.

Key words: innovative development, institutional framework, national innovation system, political institutions, economic institutions, science and technology institutions, institutional reforms, venture financing, intellectual property, startups.

Аннотация: В статье системно проанализированы институциональные основы инновационного развития экономики Узбекистана. Освещены субъекты, объекты и механизмы национальной инновационной системы, а также роль политических, экономических, социальных и научно-технических институтов, определяющих эффективность их взаимодействия. Рассмотрены этапы институциональных реформ, их содержание, институциональные пробелы и существующие проблемы. Даны предложения по совершенствованию институциональных основ для ускорения инновационного развития.

Ключевые слова: инновационное развитие, институциональные основы, национальная инновационная система, политические институты, экономические институты, научно-технические институты, институциональные реформы, венчурное финансирование, интеллектуальная собственность, стартапы.

KIRISH

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda milliy innovatsion tizim subyektlarining o'zaro, davlat, iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari va uy xo'jaliklari bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarning shakllanish va amal qilish samaradorligi mamlakatdagi huquqiy-institutsional tuzilmalar sifatiga bog'liq. Shu sababli iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish bilan bog'liq huquqiy-institutsional tuzilmalarni tahlil qilish innovatsion islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, ilm-fan, texnologiyalar va innovatsiyalar sohalaridagi huquqiy-institutsional asoslarini takomillashtirishga



qaratilgan tizimli islohotlar muntazam olib borilmoqda. Biroq, milliy iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslarining amal qilish sifatini yaxshilash, faoliyat samaradorligi va shaffofligini oshirish, ularga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni bartaraf etish kelgusidagi institutsional islohotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi borasidagi ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy adabiyotda 20-asrning o'rtalaridan boshlangan bo'lsa-da, innovatsion rivojlanishining institutsional asoslariga bag'ishlangan tadqiqotlar 1990-yillardan boshlab jadallashib bordi. Bu boradagi dastlabki ko'zga ko'ringan ilmiy ishlardan biri bo'lgan D. Nortning "Institutlar, institutsional o'zgarishlar va iqtisodiy samaradorlik" asarida institutlar innovatsiyalarni shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida tavsiflangan¹. Etzkovitz va Leydesdorf zamonaviy innovatsion ekotizimlar uchun asos sifatida universitetlar, sanoat va davlat institutlari o'rtasidagi o'zaro uyg'unlashgan munosabatlar tizimini aks ettiruvchi "Uch tomonlama spiral" modelini taqdim etishdi² va ushbu model iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional mexanizmlari bo'yicha tadqiqotlar uchun yangi yo'nalish yaratdi. K.Peres o'z ilmiy ishida institutsional tuzilmalarning texnologik o'zgarishlar dinamikasiga qanday moslashishini tahlil qilib, iqtisodiyotda innovatsiyalarning samarali joriy etilishida davlat institutlarining o'rni muhim ekanligini aytib o'tgan³. D. Ajemo'g'lu, S. Jonson va J. Robinsonlar inklyuziv siyosiy va iqtisodiy institutlarni innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari bilan bog'lab, intellektual mulk huquqi va qonun ustuvorligini ta'minlash texnologik taraqqiyotning zaruriy sharti ekanligini ta'kidlaganlar⁴. Radosevich o'tish davri iqtisodiyotidagi innovatsion institutlarni tahlil qilib, ularni siyosiy institutlarga (vazirliklar, innovatsiya agentliklari), amalga oshiruvchi institutlarga (ilmiy parklar, inkubatorlar) va bilimlarni ishlab chiqarish institutlariga (universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlari) toifalarga ajratdi⁵.

Rossiyalik tadqiqotchilar V.V. Yegozaryan va E.V. Maymina AQSh va Yaponiya misolida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida davlat institutlarining ishtiroki bo'yicha yondashuvlar farqlarini ko'rsatib bergan holda, fundamental fanni rivojlantirishda davlatning yetakchi rolga egaligini asoslashgan⁶.

O'zbekiston tadqiqotchilardan M.X. Kamilova innovatsiyalar uchun asosiy to'siqlar sifatida institutsional bo'shliqlarni ko'rsatadi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, intellektual mulk huquqini himoya qilishni yaxshilash, fan va sanoat o'rtasida aloqalarni yaratish zarurligini ta'kidlaydi, shuningdek, "institutsional tuzoqlar" va zaif institutsional ishonch muammolarini ochib beradi⁷. R.A. Alimov va D.M. Kurbanovlar O'zbekistonda muhim innovatsion salohiyat mavjudligi, lekin uni tijoratlashtirish va qo'llab-quvvatlash uchun to'liq institutsional tizim yo'qligini ta'kidlashib, texnoparklar va venchur moliyalashtirish kabi institutlarni rivojlantirish hamda intellektual mulkni himoya qilishning huquqiy asoslarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlashgan⁸. V. Kotov O'zbekistonda mintaqaviy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini tahlil qilib, bu borada innovatsion rivojlanish markazlari, maxsus sanoat zonalar, klasterlar va texnoparklarning rolini ta'kidlagan holda ularning rivojlanishini susaytirayotgan huquqiy va ma'muriy zaif tomonlarini ko'rsatib bergan⁹. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ko'tarilgan muammolar muayyan davrda dolzarb bo'lgan bo'lsa-da, bugungi kun innovatsion taraqqiyotining yangi bosqichida institutsional tizimlarning samaradorligini baholash, innovatsion rivojlanish institutlarining real ishlash mexanizmlari, hamda innovatsion rivojlanish va institutsional muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir kabi masalalar hali yetarlicha tahlil qilinmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida induksiya, deduksiya, analiz, sintez, tizimli tahlil, statistik tahlil, qiyosiy taqqoslash, metodlaridan foydalanildi.

- 1 North, D. C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press.
- 2 Etzkowitz, H., & Leydesdorff, L. (2000). *The Dynamics of Innovation: Triple Helix of University-Industry-Government Relations*. Research Policy.
- 3 Perez, C. (2002). *Technological Revolutions and Financial Capital*. Edward Elgar.
- 4 Acemoglu, D., Johnson, S., & Robinson, J. A. (2005). *Institutions as a Fundamental Cause of Long-Run Growth*. *Handbook of Economic Growth*.
- 5 Radosevic, S. (2009). *Policies for Promoting Technological Catch Up and Innovation-Based Growth in Eastern Europe and the Former Soviet Union*.
- 6 Егозарьян В.В., Маймина Э.В. Роль государства в формировании институциональных основ инновационной экономики // Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. - 2018.-№2(69). - С.53-65.
- 7 Камиллова М. Х. Институциональные условия и факторы инновационного развития республики Узбекистан // Экономика и финансы (Узбекистан). 2012. №8. С.8-15.
- 8 Алимов Р.А., Курбанова Д.М. Институциональные особенности формирования и развития инновационной экономики // Экономика и финансы (Узбекистан). 2012. №8. С.2-7.
- 9 Котов В. Проблемы и пути институционального укрепления механизмов инновационного развития регионов Узбекистана // Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. №1, октябрь 2019. С.75-80.



TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional tuzilmasining tarkibiy qismlarini tahlil qilishda institutsional subyektlar, institutsional obyektlar, institutsional mexanizm dastaklarini aniqlab olish zarur. Muayyan bilimlar asosida yangi ishlanmalarni ishlab chiqish, yangi mahsulot turlarini yaratish, bilimlarni tijoratlashtirish jarayonlarida ishtirok etib, innovatsiyalarni, innovatsion texnologiyalarni va mahsulotlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarida munosabatlarga kirishuvchi, ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi va rivojlantiruvchi barcha subyektlarga iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional subyektlari sifatida qarash mumkin. Institutsional subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy me'yorlar, iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi innovatsion ishlanmalar va texnologiyalar, yuqori texnologiyali tovar va xizmatlarni institutsional obyektlar deb hisoblash mumkin. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional mexanizmi muayyan me'yorlarni o'rnatuvchi va ma'lum tartib-qoidalarni belgilovchi turli institutlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida qo'llaniladigan dastak va vositalar majmuasidan tashkil topadi. 1-rasm.

Institutsional subyektlar	Institutsional obyektlar	Institutsional mexanizmlar
Davlat va jamoat tashkilotlari; Uy xo'jaliklari; Korxonalar; Oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari; ITTKI tashkilot va korxonalari; Biznes inkubatorlar va texnoparklar; Innovatsion assotsiatsiya va klasterlar; Venchur fondlari va tashkilotlari; Erkin iqtisodiy hududlar.	Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy me'yorlar, tartib-qoidalar; Yangi bilimlar, ishlanmalar, texnologiyalar va innovatsiyalar; Yuqori texnologiyali tovar va xizmatlar.	Siyosiy mexanizm; Ijtimoiy mexanizm; Iqtisodiy mexanizm; Fan-texnologiya institutlari mexanizmi.

1-rasm. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional tuzilmasi¹⁰.

Innovatsion rivojlantirishning siyosiy mexanizmi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan iqtisodiyotni innovatsion o'sishga yo'naltirish maqsadida amalga oshiriladigan huquqiy, ma'muriy va iqtisodiy choralar tizimidan iborat. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga mas'ul davlat va jamiyat tuzilmalari tizimi siyosiy institutlarni tashkil etadi. Innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy institutlari innovatsiyalarni yaratish va joriy etish uchun iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash, moliyaviy ko'makni ta'minlash va iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishga yo'naltirilgan institutsional dastaklar majmui bo'lib, ular innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish, zarur infratuzilmani shakllantirish, risklarni pasaytirish va bozor mexanizmlarini takomillashtirishni ta'minlaydi. Fan-texnologiya instituti subyektlari mamlakatda ilmiy va texnologik yutuqlarni amaliyotga joriy etish bilan shug'ullanuvchi oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va texnologik tashkilotlar tizimi bo'lib, ular ilmiy tadqiqotlar olib borish, texnologik ishlanmalarni tijoratlashtirish orqali yangi ishlanmalar taklifini shakllantirishadi. Oliy o'quv yurtlari malakali kadrlar tayyorlash va ularni iqtisodiyot tarmoqlariga taqsimlash vazifasini ham bajaradi. Ijtimoiy institutlar esa innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ijtimoiy muhitni shakllantirish, inson resurslarini tayyorlash va jamiyatda innovatsiyaga ijobiy munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tashkilot va tizimlardan iborat.

Innovatsion rivojlantirishning siyosiy institutlari tomonidan qo'llaniladigan dastaklar va vositalar majmuini davlatning iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish siyosati deb atash mumkin (1-jadval).

1-jadval. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning siyosiy mexanizmi dastaklari va vositalari¹¹.

Dastaklar	Asosiy vositalar	Qo'shimcha vositalar
Qonunlar va qonun osti hujjatlar	Qonun ustuvorligi, qonun oldidagi tenglik va ijro	Ayrim tarmoqlarni rivojlan-tirish bo'yicha davlat dasturlari, rag'batlantiruvchi soliq tizimi
Davlat siyosati	Siyosiy barqarorlik, tartibga solish tizimi sifati va davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlash	Davlat boshqaruvini isloh etish, lobbizmning oldini olish

¹⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan.



Mulk	Intellectual huquqning daxlsizligi va himoyasi	Mulkni moslashuvchan va adolatli soliqqa tortish
Raqobat	Sog'lom raqobatni ta'minlash, monopoliyaga qarshi kurashish	Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga va kichik biznesga imtiyozlar berish
Biznes muhiti	Biznesni yo'lga qo'yish va yuritish tartiblarini osonlashtirish	Korxonalarni ro'yxatga olish, energiya tarmog'iga ulash, soliq nazoratini yengillashtirish
Moliyalash-tirish	ITTKIning to'g'ridan-to'g'ri davlat tomonidan moliyalashtirish	Qisqa muddatli maqsadlarga erishish uchun dasturiy, maqsadli va konkursli moliyalashtirish
Inson kapitali	Milliy ta'lim, fan va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish	Inson kapitaliga investitsiyalar asosida malakaviy ko'nikmalarni oshirish

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan bugungi kunga qadar fan-texnika sohasini takomillashtirishga, milliy iqtisodiyotni yuqori texnologiyalar asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, bu boradagi siyosiy, iqtisodiy, fan-texnika va ijtimoiy institutlarni yaratish va takomillashtirishga qaratilgan tizimli huquqiy-institutsional islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu islohotlarni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin.

1992-2001-yillar. Innovatsion iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, fan-texnika imkoniyatlarini kuchaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda fanning ahamiyatini oshirish, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya jarayonlari kengaytirilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dastlabki me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. 1992-yilda tashkil etilgan Fan va texnika davlat qo'mitasiga davlat ilmiy-texnika siyosatini amalga oshirish, ixtirochilik faoliyatini, patent xizmatini va ilmiy-texnika axboroti tizimini rivojlantirish bo'yicha vazirliklar, idoralar, korxonalar, ilmiy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalari yuklatildi.

2002-2005-yillar. 2002-yilda Fan va texnika davlat qo'mitasi tugatilib, uning o'rniga "Ilmiy-texnika taraqqiyotini Muvofiqlashtirish kengashi", "Yirik ilmiy va investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish kengashi" tuzildi va Muvofiqlashtirish kengashi qoshida "Fan va texnologiyalar markazi" tashkil etildi. Ilmiy muassasalarga budjet mablag'larini ilmiy jamoaning Markaz bilan ilmiy buyurtmani bajarish uchun e'lon qilingan tanlov natijalariga ko'ra grant shartnomasi asosida berish tartibi joriy etildi va ilmiy tadqiqot faolligini rag'batlantirishga xizmat qildi. Amalga oshirilgan institutsional islohotlar ITTKIning ishlab chiqarishda joriy etishga imkon bergan bo'lsa-da, fan-texnika sohasidagi rivojlanish darajasi ushbu davrdagi jadal iqtisodiy o'sish sur'atlaridan ortda qoldi, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish qoniqsiz darajada qolaverdi, davlat ilmiy-texnika dasturlari va loyihalarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan vazirliklarning ishtiroki faol bo'lmadi, tor doiralardagi olimlar va mutaxassislar tomonidan chuqur bo'lmagan ekspertiza va muhokamalar amalga oshirilishi ahamiyatsiz mavzular tanlanishiga va ajratilgan mablag'lardan samarasiz foydalanishga olib keldi.

2006-2016-yillar. 2006-yilda Ilmiy-texnika taraqqiyotini muvofiqlashtirish kengashi, Yirik ilmiy investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish kengashi va Fan va texnologiyalar markazi tugatilib, "Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi" tashkil etildi. 2008-yilda o'rta muddatli istiqbolda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, ITTKIning amalga oshirishini va unga bo'lgan talabni rag'batlantirish, ITTKIning va innovatsion faoliyatni venchur moliyalashtirish mexanizminini rivojlantirish yo'nalishlaridagi chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi, 2013-yil 1-yanvargacha bo'lgan davrda o'quv va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tashkilotlari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha soliq to'lashdan ozod etildi. Amalga oshirilgan institutsional islohotlarga qaramay, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun mavjud imkoniyatlar va salohiyatdan samarali foydalanmaslik kabi milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolar saqlanib qoldi.

2017-2021-yillar. Mamlakatimizda 2017-yilda ITTKIning ishlanmalarini yaratish va ularni bozorga olib chiqish, innovatsion va yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarish borasidagi davlat siyosatini kuchaytirish, mavjud huquqiy-institutsional asoslarni yanada takomillashtirishga keng e'tibor qaratildi. 2017-yil 29-noyabrda O'zbekiston Respublikasini innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasiga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ sifatida "Innovatsion rivojlanish vazirligi" tashkil etildi, shuningdek, Fan va texnologiyalar agentligi faoliyati tugatildi, "Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" tashkil etildi. 2018-yildan quyidagilar 2023-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatga yagona ijtimoiy to'lovdan tashqari barcha turdagi soliq va majburiy to'lovlar to'lashdan ozod qilindi: yuqori texnologiyali tadbirkorlik loyihalar-startaplarni birgalikda moliyalashtirish uchun tashkil qilinadigan venchur fondlar; venchur fondlardan birgalikda moliyalashtiriladigan yuqori texnologiyali loyihalar-startaplar; ilmiy-tadqiqot muassasalari, loyiha-konstruktorlik byurolari, innovatsion markazlar o'zlarining yangi texnologiyalarini tadbirkorlarga sotishdan (foydalanishga berishdan) olingan



daromadlar bo'yicha; yangi texnologiyalarni mahalliy tadbirkorlik subyektlariga transfer qiluvchi tashkilotlar bu faoliyatdan olingan daromadlari bo'yicha. 2018-yil 21-sentyabrda "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi.

O'zbekistonda 2006-yildan boshlab amalga bo'lgan olimlar tashabbusi bilan shakllantiriladigan loyihalarga asoslangan eski samarasiz grant tizimi o'rniga 2018-yildan boshlab raqobatga asoslangan, iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlariga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi mexanizmi joriy etildi. Ilmiy loyihalarga grant ajratish bo'yicha tanlovlar 2018-yildan har yili o'tkazila boshlandi (ilgari loyiha turiga ko'ra 2 yildan 5 yilgacha davrda o'tkazilgan). Ilgari moliyalashtirish hajmini olimlar belgilagan bo'lsa, 2018-yildan davlat buyurtmasi doirasida aniq hisob-kitoblar asosida belgilanadigan bo'ldi. O'rtacha bir loyihani moliyalashtirish hajmi 150 mln. so'mdan 850 mln. so'mgacha ko'tarildi.

2019-yilda "Fan va texnologiyalar bo'yicha Respublika kengashi" tashkil etildi va Kengashga fan va texnologiyalar sohasida yagona davlat siyosatini shakllantirish, fan va ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni muvofiqlashtirish, fan va texnologiyalar sohasini rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ularning bajarilishi samaradorligini ta'minlash kabi vazifalar yuklatildi. Mamlakatimizda ilm-fan va ilmiy faoliyat hamda innovatsion faoliyatni tartibga solishning huquqiy asosini tashkil etish maqsadida 2019-yil 29-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli va 2020-yil 24-iyuldagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-sonli qonunlari qabul qilindi.

2017-2021-yillarda amalga oshirilgan institutsional islohotlar natijasida O'zbekistonning xalqaro Global innovatsiya indeksidagi o'rnini yaxshilandi, ITTKI va innovatsiyalarga davlat xarajatlari 3 baravar oshdi, innovatsion faoliyatni moliyalashtiruvchi innovatsion va vechur fondlari soni 28taga yetdi¹². Biroq ITTKI va innovatsiyalarni tijoratlashtirish darajasi pastligicha qoldi, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik darajasi yetarli darajada oshmadi.

2-jadval. O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirishning institutsional ko'rsatkichlari, standartlashtirilgan indekslar¹³.

Ko'rsatkich	2015 yil	2021 yil	2030 yil (maqsad)	O'rtacha yillik o'zgarish, band		Maqsadga erishish darajasi, %
				maqsad	haqiqiy	
Siyosiy va operativ barqarorlik	50,6	65,5	75,0	1,63	2,48	87,3
Hukumat samaradorligi	16,1	38,8	70,0	3,59	3,78	55,4
Normativ sifat	4,4	21,3	70,0	4,37	2,82	30,4
Qonun ustuvorligi	15,6	18,5	65,0	3,29	0,48	28,5
Bankrotlikni tan olish	46,5	43,5	70,0	1,57	-0,60	62,1

2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida belgilangan ko'plab maqsadli ko'rsatkichlar qatorida institutlar bo'yicha ko'zlangan darajalarga erishilmadi. Yuqoridagi 2-jadvaldan ko'rish mumkinki, normativ sifat ko'rsatkichi maqsadli o'rtacha yillik o'zgarish darajasidan pastroq punktlarda oshgan. Qonun ustuvorligi ko'rsatkichi bo'yicha kichik punktlardagi o'sishga erishilgan, lekin juda past darajada saqlanib qolgan. Moliyaviy nochorlikni hal etishning soddaligi pasaygan. Ushbu holatlar tegishli yo'nalishlar bo'yicha islohotlarning ijobiy samara bermaganligini aks ettiradi.

2022-yildan hozirgi vaqtga qadar. Mamlakatimizda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning yangi bosqichi sifatida 2022-yil 6-iyulda "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish Strategiyasi" tasdiqlandi va unda 2026-yilga borib O'zbekistonning Global innovatsiya indeksi reytingida 56 yetakchi mamlakat qatoriga kirishi belgilandi. Davlat boshqaruv institutlari samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar doirasida 2023-yil boshidan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tashkil etildi.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2022 yildagi PF-165-sonli "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

¹³ "Global innovatsiya indeksi" va hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



O'zbekistonda bugungi kunga kelib milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi siyosiy institutlar bilan birgalikda innovatsion faoliyat infratuzilma subyektlari bo'lgan fan, texnologiyalar va innovatsiyalar sohalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi, muayyan ilmiy-texnik xizmatlar ko'rsatuvchi va innovatsion vositachilik qiluvchi boshqa fan-texnika va iqtisodiy institutsional birliklar ham shakllantirilgan (3-jadval) bo'lib, ularning faoliyatini kengaytirishga va rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

3-jadval. O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional birliklari tarkibiy tuzilishi¹⁴.

Vazifalar	Institutlar
Innovatsion rivojlanish siyosatini shakllantirish va olib borish	Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi; Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi; Iqtisodiyot va moliya vazirligi; Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi; Innovatsion rivojlanish agentligi; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
Innovatsion siyosat va faoliyatni moliyalashtirish	Innovatsion rivojlanish agentligi; Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferining milliy ofisi; Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi; Davlat tashkilotlarining byudjetdan tashqari innovatsiyalarni rivojlantirish jamg'armalari; venchur fondlari va innovatsiyalarni investitsiyalash kompaniyalari.
Innovatsion rivojlanishni baholash va axborot berish	Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot Markazi; Iqtisodiy va moliya vazirligi; Milliy Statistika qo'mitasi.
Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash	Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferining milliy ofisi; Innovatsion ishlanmalarni joriy etish ilmiy-amaliy markazi; Istiqbolli loyihalar milliy agentligi; Innovatsion ishlanma va texnologiyalar markazlari.
Innovatsion faoliyatni amalga oshirish	Ilmiy-tadqiqot institutlari; Oliy o'quv yurtlari va ulardagi ilmiy markazlar; Ilg'or texnologiyalar markazi; Innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar markazlari; Xususiy sektor ITTKI tashkilotlari va korxonalari.
Ilmiy, texnologik va vositachilik xizmatlarini ko'rsatish	Innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar markazlari; Biznes-inkubatorlar, akseleratorlar, IT park va texnoparklar; Erkin iqtisodiy zonalar va sanoat zonalar; Intellekual mulk agentligi; O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi; Savdo-sanoat palatasi.

Mamlakatimizda keng ko'lamli institutsional islohotlar amalga oshirilishi natijasida aniq belgilangan maqsad va funksiyalarga ega bo'lgan qator huquqiy-institutsional asoslar shakllantirildi. Ushbu huquqiy-institutsional asoslarning samaradorligini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Jumladan, "Global innovatsiya indeksi – 2024" hisoboti ma'lumotlariga ko'ra institutlar indeksi bo'yicha O'zbekiston jahonda 62-o'rinni egallagan bo'lsa-da, hukumat samaradorligi, qonun ustuvorligi va normativ sifat indeksleri past darajada saqlanib qolmoqda va joriy reytingda ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha mos ravishda 91-, 111- va 102-o'rinlarni egalladi¹⁵.

So'nggi yillarda O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida muhim institutsional islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, hozirgi bosqichda bir qator dolzarb institutsional muammolar hal etilmasdan qolmoqda. Ushbu muammolarni institutsional to'siqlar va ularning innovatsiyalarga ko'rsatadigan salbiy ta'sirlari bo'yicha umumlashtirib quyidagi 4-jadval orqali ifodalash mumkin.

4-jadval. O'zbekistonda innovatsion rivojlanish bo'yicha asosiy institutsional to'siqlar¹⁶.

Institutlar	Asosiy to'siqlar	Innovatsiyalarga ta'siri
Boshqaruv va me'yoriy-huquqiy baza	Yuqori davlat ustunligi, nosog'lom raqobat, zaif qonun ustuvorligi, murakkab byurokratiya, noshaffoflik.	Innovatsiyalarga xususiy investitsiyalar sarfini kamaytiradi, innovatsiyalarda bozor munosabatlarini buzadi
Moliyaviy tizim va kapital bozorlar	Kichik biznes uchun startaplarni moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi, ustun davlat bank tizimi, rivojlanmagan kapital bozorlari.	Startaplar va innovatsion loyihalarning kengayishini sekinlashtiradi kapitalni noto'g'ri taqsimlaydi, dastlabki bosqich investitsiyalarini kamaytiradi.
Inson kapitali va ilmiy-tadqiqot ekotizimi	Malakali kadrlar tanqisligi, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda sifat muammolari, akademiya va sanoat o'rtasidagi uzilish, raqamli tafovut.	Ilmiy-tadqiqotlarni cheklaydi, yangi texnologiyalarni joriy etishni sekinlashtiradi, innovatsion korxonalar kadrlar zaxirasini qisqartiradi.

¹⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁵ WIPO. Uzbekistan ranking in the Global Innovation Index 2024. <https://www.wipo.int/edocs/gii-ranking/2024/uz.pdf>

¹⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.



Milliy innovatsion tizim	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishdagi bo'shliqlar, intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning evolyutsion bosqichi.	Ishlanmalarni mahsulotga aylantirishni sekinlashtiradi, startaplarning o'sishini to'xtatadi, ijodiy mahsulotlardan daromad olish imkoniyatlarini cheklaydi.
Infratuzilma va atrof-muhit	Suv va energiya tanqisligi, yuqori transport xarajatlari, ifloslanish, eskirgan infratuzilma.	Xarajatlarni oshiradi, resurslar samarasiz ishlatiladi, yashil investitsiyalar kamayadi, uzoq muddatli barqarorlikka salbiy ta'sir qiladi.

O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda institutsional muammolar kompleks xususiyatga ega bo'lib, ular bir nechta o'zaro bog'liq sohalarni qamrab oladi. Shu sababli, O'zbekistonning innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasidagi amalga oshirilayotgan jadal islohotlari sharoitida chuqur institutsional bo'shliqlar, tarkibiy to'siqlar va doimiy muammolarning mavjudligi bu boradagi imkoniyatlarni cheklaydi va yaqin istiqbolda erishish ko'zda tutilgan strategik natijalarning kechikishiga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida institutlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan yondashuvni hisobga olish zarur. Innovatsion rivojlanish dasturlarini amalga oshirish samaradorligini monitoring qilish tizimini va uni baholash uslubi yaratishni takomillashtirish taqozo etiladi.

Mavjud institutsional muammolarni hal qilish va institutsional bo'shliqlarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- qonun ustuvorligi va normativ sifat darajalarini oshirish, intellektual mulk huquqi himoyasini kuchaytirish;
- kichik innovatsion korxonalar va startaplar uchun moliyalash imkoniyatini oshirish, venchur kapitalini rivojlantirish, startap loyihalardagi risklarni boshqarish, innovatsion loyihalarni imtiyozli kreditlash amaliyotini kengaytirish;
- fan va texnologiya sohasida oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari sonini oshirish, sanoat, oliy ta'lim va fan hamkorlik munosabatlarini kuchaytirish, yirik sanoat sanoat korxonalarida ilmiy markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish.

O'zaro bog'liq bo'lgan institutsional muammolarni tizimli ravishda hal etish orqali O'zbekiston innovatsiyalar uchun yanada qulay muhit yaratishi, ko'proq investitsiyalarni jalb qilishi, dinamik, raqobatbardosh va barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Acemoglu, D., Johnson, S., & Robinson, J.A. (2005). Institutions as a Fundamental Cause of Long-Run Growth. Handbook of Economic Growth.
2. Etzkowitz, H., & Leydesdorff, L. (2000). The Dynamics of Innovation: Triple Helix of University–Industry–Government Relations. Research Policy.
3. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.
4. Perez, C. (2002). Technological Revolutions and Financial Capital. Edward Elgar.
5. Radošević, S. (2009). Policies for Promoting Technological Catch Up and Innovation-Based Growth in Eastern Europe and the Former Soviet Union.
6. Алимов Р.А., Курбанова Д.М. Институциональные особенности формирования и развития инновационной экономики // Экономика и финансы (Узбекистан). 2012. №8. С.2-7.
7. Егозарьян В.В., Маймина Э.В. Роль государства в формировании институциональных основ инновационной экономики // Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. - 2018.-№2(69). - С.53-65.
8. Камилова М. Х. Институциональные условия и факторы инновационного развития республики Узбекистан // Экономика и финансы (Узбекистан). 2012. №8. С.8-15.
9. Котов В. Проблемы и пути институционального укрепления механизмов инновационного развития регионов Узбекистана // Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. №1, октябрь 2019. С.75-80.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2022 yildagi PF-165-sonli "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
11. <https://www.wipo.int/> - Jahon intellektual mulk tashkiloti sayti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>